

**BUXORO XONLIGI DAVRIDA MADANIY HAYOT YUKSALISHI HAMDA
KUTUBXONALAR TARAQQIYOTI**
(shayboniyalar va ashtarxoniyalar sulolasi misolida)

*Abdurahmonova Nazokat Davlatboy qizi
Namangan davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Temuriylardan keyin shakllangan O'rta Osiyodagi yirik mamlakat Buxoro xonligidagi ikki sulola Shayboniyalar va Ashtarxoniy sulolalarining madaniy va ijtimoiy hayoti haqida atroficha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Shayboniyalar, Ashtarxoniyalar, jamiyat, ilm-fan, kutubxona, qo'lyozma, yozuv qog'ozi, musavvir, adabiyot.

**ПОДЪЕМ КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ И РАЗВИТИЕ БИБЛИОТЕК ВО
ВРЕМЯ БУХАРСКОГО ХАНСТВА**
(в случае династий Шейбанидов и Аштарханидов)

*Абдурахманова Назокат dochь Давлатбоя
Студент Наманганского государственного университета*

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается культурная и общественная жизнь династий Шайбани и Аштархани — двух династий Бухарского ханства — крупного государства в Центральной Азии, образовавшегося после Тимуридов.

Ключевые слова: Шайбани, Аштархани, общество, наука, библиотека, рукопись, писчая бумага, художник, литература.

**THE RISE OF CULTURAL LIFE AND DEVELOPMENT OF
LIBRARIES DURING BUKHARA KHANATE**
(in the case of the Shaybanid and Ashtarkhanid dynasties)

*Abdurahmanova Nazokat Davlatboy's daughter
Student of Namangan State University*

Abstract. In this article, the cultural and social life of Shaibani and Ashtarkhani dynasties, two dynasties of the Bukhara Khanate, a large country in Central Asia formed after the Timurids, is discussed in detail.

Key words: Shaibani, Ashtarkhani, society, science, library, manuscript, writing paper, painter, literature.

XV asr ikkinchi yarmi XVI asr boshlarida Temuriylar davlatining inqirozi oqibatida Sirdaryodan tortib Markaziy Afg'onistongacha bo'lgan juda katta hududda Shayboniyxonning ulkan imperiyasi tashkil topdi. Shayboniyxon shayboniylar sulolasining asoschisi bo'lib, bu yerda ham temuriylar davrida bo'lgani kabi madaniy an'analar saqlanib qolgan edi.

Movarounnahrda she'riyat va adabiyot, va san'at ancha rivoj topdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida ko'plab shoirlar yashab ijod qildi. Markaziy Osiyo adabiy hayotining antalogiyasi hisoblangan Hasan Buxoriy Nisoriyning "Muzakkir al-ahbab", Mutribiyning "Tazkirati shuaro" nomli kitoblari yuzaga keldi. O'zbek (turkiy) tilida ko'plab tarixiy asarlar yaratildi, "Tavorixi guzidai Nusratnama", Muhammad Solihning "Shayboniyona" nomli qahramonlik dostoni, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si va boshqa ko'pgina asarlar shular jumlasidandir.

Zayniddin Vosifiyoning "Badan alviya", Fazlulloh ibn Ro'zbexon Isfahoniyning "Mehmonnomai Buxoro" nomli memuarlari dunyoga keldi.

Buxoroda qadimdan jahonga mashhur ilm maskanlari va kutubxonalar mavjud bo'lgan. XVI – XVIII asrlarda Buxoroda ikkita yirik saroy kutubxonalari mavjud bo'lgan. Bu kutubxonalardan biri Shayboniylar saroyi kutubxonasidir. Madaniyatning rivojlanishi kutubxonalarning yanada o'sishini taqozo etdi, lekin bu kutubxonalarni hajm va mazmun jihatidan oldingilariga tenglashtirib bo'lmasdi. Bu davrda saroy kutubxonalari bilan bir qatorda madrasalar, masjidlar qoshida hamda xonardonlarda ham kutubxonalar rivojlandi.

Shayboniyxon va uning vorislari adabiyotga va ilm-fanga bir muncha homiylik qildilar. Hirotlik taniqli va iste'dodli shoirlar, xorazmlik Muhammad Solih va hirotlik Kamoliddin Binoiy Shayboniyxon saroyida xizmatga o'tdilar. Shayboniyxon o'z davriga yarasha anchagina ma'lumotli kishi edi. Uning o'zi o'zbek va fors tillarida she'rlar bitgan, o'zbek tilida "Bahr al-xudo" nomli asar yozgani ma'lum.

Shayboniyxon xattotlikka katta e'tibor berdi, uni ko'pgina boshqa masalalar ham qiziqtirardi. "O'zining butun harbiy hayotiga qaramasdan, - deb yozgan edi A.A. Semyonov, - u qaysi shahar va qishloqda bo'lmasin, qayerda to'xtamasin, olimu ulamolar, so'fiylar va shoirlar bilan suhbatlashishni yoqtirardi". Shayboniyxon hukmronlik qilgan davrda uning saroyida kutubxona bo'lib, unda o'z qalamiga mansub asarlari ham, uning ishtirokida tuzilgan to'plamlar ham saqlanardi. Masalan, "Tavorixi guzidai Nusratnama" shular jumlasidandir. Ayrim kutubxonalarda, Shayboniyxonning Samarqanddag'i madrasasida qo'lyozmalar avaylab saqlangan, ular orasida anchamuncha nodir qo'lyozmalar ham bo'lgan. Shayboniylar saroyi kutubxonasi haqida Hasan Nisoriyning "Muzakkir al-ahbab" nomli tazkirasidan Erondan kelgan ustalarning kutubxonadagi faoliyati to'g'risida ozgina bo'lsa ham ma'lumotga ega

bo'lish mumkin. Kutubxonaga turli davrlarda 3 nafar kitobdar rahbarlik qilgan: Sulton Miroq al- Munshiy, Mavlono Abdullox al-Munshiy va Mir Husayn al-Husayniy an-Nasafiy bo'lib, ularning qo'l ostida 3 suratkash va 9 usta ishlagan. Kutubxonada hattotlik ishi ham olib borilar va suratkashlar tomonidan kitoblarga zarhal bilan bezak berilib, turli miniatyuralar ta'svirlanardi. Shayboniyxon o'zi ham juda ilmli kishi bo'lib, ilm ahllari uchun saroyi oldida yirik va mashhur kutubxona tashkil qilgan. Kutubxonada kitoblar sandiqlarda chiroylar qilib terilgan. Bu yerda noyob kitoblar bilan bir qatorda xonning o'zi yozgan she'r va asarlari, zamondosh alloma va shoirlarning qo'lyozma asarlari ham saqlanib kelingan.

O'rta Osiyoning barcha hududida shayboniyalar davrigacha ham kutubxonalar mavjud bo'lib, madaniyatning o'sishidan kutubxonalar faoliyati yanada quloch yoyib borgan. Saroy kutubxonalari bilan bir qatorda madrasa, masjid va shaxsiy kutubxonalar qaror topa boshladi.

Shayboniyxonning vorislaridan -uning amakivachchasi, shoir Ubaydullaxon Ubaydiy (1533-1589) ayniqsa katta kutubxonaga ega bo'lgan. Bu kutubxonadagi noyob qo'lyozma hisoblangan "Kulliyoti Ubaydiy" nihoyatda chiroylar qilib bezatilgan bo'lib, bizning kunlarimizgacha yetib kelgan va hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Shuni ham aytish kerakki, ayrim kutubxonalar huzurida turli asarlarni boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari ham keng ko'lamda olib borilgan. Bu sohada Buxorodagi Xiraviy va Ahmad al-Husayniy ishtirokida tayyorlangan.

Abdullahxon II kutubxonasi ham ma'lum darajada mashhur bo'lgan, bu kutubxonada uzoq yillar mashhur xattot Mir Husayn al-Husayn boshchilik qilgan. Yirik kutubxonalarda tajribali musavvirlar va muqovasozlar ham ishlashar, kitoblar o'sha vaqtarda ancha keng taraqqiy etgan Markaziy Osiyo mo'jaz san'ati namunalari bilan chiroylar qilib bezatilgan. Ko'pgina yirik asarlar, chunonchi, "Fathnoma", "Tarixi Abdulxayrxon", 1521-yilda Alisher Navoiy asarlarining ro'yxati ana shunday original tarzda bezatilgan va 1562-1563-yillarda muqovalangan. "Tavorixi guzidai Nusratnoma" va boshqa asarlar ham shunday miniatyuralar bilan bezatilgan hamda ishlangan[4.c.49].

Shayboniyalar davrida bo'lgani kabi, joniylar sulolasini davrida Buxoro xonligida musulmon dini xalq hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu vaqtda aniq va tabiiy fanlar birmuncha tanazzulga uchradi. Shunga qaramasdan ilohiyotchilar orasida o'zining olimlik faoliyati bilan shuhrat qozongan Oxund Muhammad Sharif singari shaxslar bor edi. Manbalar taniqli olim, shoir va faylasuf Yusuf Qorabegimning ham nomini, yirik qonunshunos, "Yashiringan narsalar haqida risola" nomli mashhur asar muallifi Nasriddin Buxoriyning nomini ham saqlab qolgan.

Ashtarxoniyalar sulolasini davrida esa madaniyat rivojlandi, adabiy yozma yodgorliklar yaratildi. Sayido Nasafiy, Turdi va boshqa ko'pgina shoirlar xalq orasidan

yetishib chiqdi. 1692-yilda 200 nafar adabiyot arbobi to‘g‘risidagi she’riyat antologiyasi tuzib chiqildi. Joniylar davlatida qo‘lyozma kitoblarni bezatish ishlari takomillashdi, bu vaqtda ko‘plab xususiy kitob to‘plamlari va kutubxonalar paydo bo‘ldi. Ashtarkoniylar kutubxonasida turli davrlarda quyidagi 7 kishi ish olib borgan: Mirza Mo’min Munshiy, Muhammad-Amin kitobdor, Nasrid-Din kitobdor, Mir sayid Jalol kitobdor, Qozi Lutfilox, Xoji Abd-ar-Raxmon kitobdor, Xoji Mir Muhammad Yoqub kitobdor. XVII asr oxirlarida qo‘lyozma kitoblarni bezash ishlari ancha rivojlandi, shuningdek, shaxsiy kutubxonalar va kitob yig‘ish kuchaydi.

Samarqand va Buxoroda yuqori sifatli yozuv qog‘ozi paydo bo‘lganligini, bu ish Abdulazizxon (1645-1680) hukmronlik qilgan davrda mukammal darajaga yetganligini, bu esa ma'lum darajada adabiyotning rivojlanishi va keng tarqalishiga sabab bo‘lganligini quvonch bilan aytib o‘tish kerak.

Ma’lumki, Buxoroda qo‘lyozma kitoblar to‘plash bilan Abdulaziz va uning ukasi shoir Subhonqulixon ham qiziqardi. Uning davrida Buxoroda shifoxona (dor ush-shifo) qurilgan, uning huzurida tibbiyot va ilmiy kitoblarga ega bo‘lgan kutubxona ham shuhrat qozongan. Subhonqulixon hukmronligi davrida ancha-muncha qo‘lyozma to‘plamlarini o‘z ichiga olgan jamoat kutubxonasi ochilgan. U o‘zining ancha batafsil yozilgan “Ixna attab Subhoniy” (“Subhonqulixon tibbiyotni jonlantirishi”) nomli tibbiy asarini yaratishda mazkur kutubxonadagi adabiyotlardan har tomonlama foydalangan[6.c.91]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida Subxonqulixonning kutubxonasidan bir nechta kitoblar va o‘sha davrga oid tibbiy qo‘lyozmalar saqlanadi, ularni xonning o‘zi tuzib chiqqan yoki unga bag‘ishlangan.

Kutubxona huzurida qo‘lyozma kitoblarni ta'mirlaydigan ustaxonada musavvirlar, xattotlar va shikastlangan kitoblarni asl holiga keltiruvchi va tiklovchi mutaxassislar ish olib borishgan. Mo‘jaz san‘at maktabi mavjud bo‘lib, unda o‘z davrining mashhur ustalari Mahmud murzib, Abdulla og‘a va boshqalar ishlaganligi ma’lum. Kutubxonalar tez-tez bo‘lib turadigan saroy to‘ntarishlari, bosqinchilik va o‘zaro urushlardan zarar ko‘rar, masjid va madrasalar buzilar va yozma yodgorliklar yo‘q qilinar yoki tashib ketilar edi. Buxorodagi kutubxona urush va yong‘inlardan shikast ko‘rish bilan bir qatorda bosib olingan shaharlardan olib kelingan kitoblar va qo‘lyozmalar bilan to‘ldirib borilar edi. Masalan, 1560-yilda kutubxona Ubaydullaxon va Abdulmo‘minlar hukmronligi vaqtida ikki marta talangan Mashhad shahridan keltirilgan qo‘lyozmalar bilan to‘ldirilgan. Shundan keyingi yillarda ham ma’naviy madaniyat boyliklari xazinalarini talon-taroj qilish davom etdi. Buxorodagi o‘zaro urushlar vaqtincha to‘xtatilgandan keyin ham kitob omborlaridagi kitoblarning qoldiqlari, amir Nasrullahon hukmronligining oxirida Shahrisabz, Kitob va Hisor kutubxonalaridagi kitoblarning qoldiqlari Qarshi shahriga tashib keltirilgan.

Xulosa qilib qayd etish mumkinki, shayboniyalar va ashtarkoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligi madaniy hayot rivojlandi. Chunonchi, kutubxonalar faoliyati

kengaydi. Bu ishlarda aksariyat bevosita davlat rahbarlari boshchilik qilishdi. Shunday bo'lsada, bu davrdagi o'zaro urushlar, siyosiy nizolar kutubxonalar taraqqiyotida to'sqinlik qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти, 1 қисм, Тошкент, 2000.
2. Семёнов.А.А. «Шейбанихан и завоевание им империи Тимуридов». Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вип.7, 1954.
3. Ўзбекистон давлатсҳилиги тарихи осҳерклари, Тошкент, 2001.
4. История Узбекистана(XVI—Первая половинаXIX века), т.3, Тошкент., 1993.
5. Материалы по истории Средней и Центральной Азии XVI-XIX вв., Тошкент., 1988.
6. Мир Мухаммад Амини Бухари, Убайдулланаме, Тошкент., 1957.